

**KO'P OLTINGUGURTЛИ GAZLARNI ADSORBTСИЯ YORDAMIDA TOZALASH  
TEXNOLOGIK TIZIMI**

**Choriyev Bobur Burxon o'g'li**

*Toshkent viloyati Toshkent shahar*

*OTIVga qarashli Toshkent Kimyo Texnologiya Institutining*

*2-kurs magistrant talabasi*

**Annotatsiya:** Qatlamdan qazib olingan gazlar tarkibi o'rganish asosida oltingugurt mavjudligi hamda uning miqdoriga bog'liq holda tozalash usuli tanlangan. Bunda absorption usul tanlanib, unda ishlataladigan absorbentlarning qo'llanilishi texnologik tizimi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** gaz, oltingugurt, adsorbent, yutuvchanlik, seolet, aktivlangan ko'mir, desorntsiya, reaksiya, adsorber, silikagel.

Adsorbsiya tanlash xususiyatiga ega. qutbli adsorbatlar qutbli adsorbentlarda, qutbsiz adsorbentlarda qutbsiz adsorbatlar yaxshi adsorbsiyalanadi. Masalan, ko'mirni suvga aralashtirsak, u suvni yutmadi. Agar suvda biror organikmodda eritsa, unda ko'mir erigan moddani yutadi. Silikagel esa suvni yaxshi adsorbsiyalaydi. Uning bu xossalidan quritish usullarida foydalaniadi. Demak, adsorbentlar – *gidrofil* (sathida suv, spirt, aminlar yaxshi adsorbsiyalanadi) *vagidrofob*(m, benzol) adsorbentlarga bo'linadi. Adsorbsiyalangan molekula adsorbsion qavatda qancha vaqt davomida yashashi *adsorbsiya vaqt* deb ataladi. Adsorbsiya vaqt S.Y. Frenkel tenglamasiga binoan qo'yidagicha ifodalanadi:

Adsorbsiyaga oid dastlabki ilmiy tekshirish ishlari T.Ye.Lovits nomi bilan bog'liq. U 1792-yilda eritmalarini turli qo'shimchalardan tozalash uchun qattiq adsorbent sifatida ko'mirdan foydalandi. Adsorbsiya hodisasi faqat ko'mirga emas, balki boshqa barcha g'ovak moddalarga ham xos. Adsorbsiya sathda boradigan jarayon bo'lib, adsorbtiv (gaz yoki erigan modda) molekulalarining adsorbent sathidagi molekulalar bilan Van-der-Vaals kuchlari, vodorod bug'lari, elektrostatik tortishish kuchlari ta'sirida ta'sirlashishi tufayli sodir bo'ladi. Shu ta'sirlashuvlar natijasida qanday bog'lar xosil bo'lishiga qarab adsorbsiya ikkiga bo'linadi:

- *fizikaviy adsorbsiya* – adsorbent va adsorbat molekulalari Van-der-Vaals kuchlari orqali ta'sirlashadi. Muvozanat tez qaror topadi. Harorat ta'sirida adsorbsiya pasayadi.

- adsorbent bilan adsorbat molekulalari orasida kimyoviy bog' xosil bo'lsa *kimyoviy adsorbsiyadeyiladi*. Muvozanat juda sekin qaror topadi, ba'zida xemosorbsiya xisobiga muvozanat qaror topmaydi.

Adsorbsiya darajasi – adsorbent va adsorbtivning tabiatiga, haroratga, gazning bosimi yoki eritmaning konsentratsiyasiga, shuningdek adsorbentning solishtirma sathiga va sirt taranglikga bog'liq.

**Xemosorbtсия.** Yutilish jarayoni adsorbent va adsorbtiv molekulalarining kimyoviy ta'sirlashuvi natijasida sodir bo'lsa, xemosorbtсия deyiladi. Xemosorbttsiyada muvozanat yuzaga kelmaydi, adsorbtsiya qaytmas bo'ladi.

Xemosorbtсия natijasida adsorbent sathida yangi modda hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan moddani alohida ajratib olib bo'lmaydi va uni yangi faza deya olmaymiz. Masalan: temir havodan kislorodni yutadi va zanglaydi, lekin zangni ajratib olib bo'lmaydi. Ba'zi hollarda xemosorbtсия jarayonida faqat adsorbent sathidagi molekulalar emas, balki uning hajmidagi molekulalar ham qatnashadi. Bunda hosil bo'lgan kimyoviy birikma yangi fazani hosil qiladi. Masalan: CaO ga CO<sub>2</sub> yutilishi natijasida CaCO<sub>3</sub> hosil bo'ladi. Haroratning ortishi kimyoviy reaksiya tezligini oshirishi tufayli xemosorbtсия tezlashadi.

**Kapillyar kondensatsiya.** Gazlarning sorbsiya vaqtida qattiq jism g'ovaklarida o'z kritik haroratidan past haroratda kondensatlanib suyuqlikka aylanishi kapillyar kondensatsiya deyiladi. Suyuqlik adsorbent sathini yaxshi ho'llasa kapillyar ichida botiq menisk hosil bo'ladi, so'ng bug' ana shu menisk ustida suyuqlikka aylanadi va adsorbentning barcha g'ovaklarini suyuqlikka to'ldiradi. Kapillyar kondensatsiyada adsorbsion kuchlar ishtirok etmaydi, balki suyuqlikning botiq meniskiga bug'ning tortilishi asosiy rol o'ynaydi. Jarayon juda katta tezlik bilan boradi va bir necha minutda tugaydi.

Ma'lumki, xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladigan adsorbentlar iloji boricha katta solishtirma yuzaga ega bo'lish kerak. Kimyo, oziq-ovqat va boshqa sanoatlarda faollangan ko'mir, silikagellar, alyumogellar, steolitlar, stellyuloza, ionitlar, mineral tuproq (bentonit, diatomit, kaolin) va boshqa materiallar adsorbent sifatida ishlataladi. Albatta, adsorbentlar mahsulot bilan bevosita ta'sirda bo'lgani uchun zararsiz, mustahkam, zaharlimas va mahsulotni iflos qilmasligi kerak. Adsorbentlar moddaning massa birligiga nisbatan juda katta solishtirma yuzali bo'ladi. Uning ichidagi kapillyar kanallari o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi, ya'ni makrokovakli ( $>2\cdot10^{-4}$ mm), oraliq kovakli ( $6\cdot10^{-6}...2\cdot10^{-4}$ mm) va mikrokovakli ( $2\cdot10^{-6}...6\cdot10^{-6}$ mm) bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, adsorbtsiya jarayonining xarakteri ko'p jihatdan kovaklar o'lchamiga bog'liq. Adsorbent yuzasida yutilayotgan komponent molekulalarining miqdoriga qarab bir molekulali qatlam (monomolekulali adsorbtsiya) va ko'p molekulali qatlam (polimolekulali adsorbsiya) hosil qilish mumkin. Adsorbentlarning yana bir muhim xarakteristikasi shundaki, bu uning yutish qobiliyati yoki faolligidir. Adsorbent faolligi uning birlik massasi yoki hajmida komponent yutish miqdori bilan belgilanadi. Yutish qobiliyati 2 xil, ya'ni statik va dinamik bo'ladi. Adsorbentning statik yutish qobiliyati massa yoki hajm birligida maksimal miqdorda modda yutishi bilan belgilanadi. Dinamik yutish qobiliyati esa, adsorbent orqali adsorbtiv o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi.

Adsorbentlarning komponent yutish qobiliyati temperatura, bosim va yutilayotgan modda konstentrastiyasiga bog'liq. Ushbu sharoitlarda adsorbentning

maksimal yutish qobiliyati *muvozanat faolligi* deb nomlanadi. Adsorbentlar zichligi, ekvivalent diametri, mustahkamligi, granulometrik tarkibi, solishtirma yuza kabi xossalari bilan xarakterlanadi. Sanoatda ko‘pincha granula (2...7 mm) ko‘rinishidagi yoki o‘lchamlari 50...200mm bo‘lgan kukunsimon adsorbentlar foydalaniladi.

**Faollashtirilgan ko‘mirlardagi adsorbsiya;** Faollashtirilgan ko‘mirlar yordamida tozalash adsorbsiya jarayoni natijasidasodir bo‘ladi. Oddiy so‘z bilan aytganda bu hodisa *adsorbent* deb ataluvchi qattiqmodda yuzasiga gaz va suyuq moddalarning yig‘ilib qolishi natijasida sodirbo‘ladi. Adsorbsiya turini quyidagilarga asoslanib ajratish mumkin: Texnologik issiqlik – fizik adsorbsiya uchun past, xemosorbsiya uchun yuqori. Jarayonning qaytarligi – fizikaviy adsorbsiyalangan moddalarni regeneratsiyajarayonida osongina ajratish mumkin lekin kimyoviy adsorbsorbsiyalangan moddaniajratish murakkab va maxsus sharoitlarni talab qiladi. Adsorbsion qavatlar qalinligi – fizik adsorbsiyada qavat qalinligi diametrigansbatan bir necha barobar (bosim va haroratga bog‘liq holda) bo‘lishi mumkin, xemasorbsiyada esa monomolekulyar qavat hosil bo‘ladi. Qo‘llanilish usulining soddali va yuqori darajadagi tozalashi natijasida faollashtirilgan ko‘mirlar keng miqyosda qo‘llaniladigan adsorbent hisoblanadi. Adsorbsiya tozalanayotgan muhitda kimyoviy o‘zgarishlar keltirib chiqarmaydi, shuning uchun ham ko‘plab texnologik jarayonlarda qo‘llaniladi.

**Silikagellar-** bu kremniy kislota gelining suvsizlantirilgan mahsulotidir. Ushbu adsorbentlar natriy silikat eritmalariga kislota yoki ular tuzlarining eritmalarini ta’siri natijasida olinadi. Silikagellarning solishtirma yuzasi  $400-780 \text{ m}^2/\text{g}$ , to‘kma zichligi esa  $100-800 \text{ kg/m}^3$ . Silikagel granulalari 7 mm gacha bo‘lishi mumkin. Silikagellar asosan suv bug‘ini yutish, gazlarni quritish, pivo yoki meva sharbatlarini tozalash uchun qo‘llaniladi. Bu adsorbent boshqa adsorbentlarga qaraganda yonmaydi, mexanik jihatdan mustahkam bo‘ladi.

**Seolitlar** - tabiiy va sun’iy mineral holatida bo‘lib, alyumosilikatning suvli birikmasi. Ushbu adsorbent suvda va organik erimalarda erimaydi. Sun’iy steolit kovaklari o‘lchami sorbstiyalanayotgan molekula o‘lchamiga yaqin bo‘lgani uchun, kovaklarga kiriyotgan molekulalarni adsorbsiya qila oladi. Bu turdagи seolitlar molekulyar elaklar deb nomlanadi. Seolitlarning ayrim turlari sharbatlarni konstentrash uchun ishlatiladi. Seolitlar yuqori yutish qobiliyatiga ega bo‘lgani uchun, gazlarni va suyuqliklarni qisman quritish yoki suvsizlantirish uchun ham qo‘llaniladi. Seolitlar, ko‘pincha 2-5mm diametrli granula ko‘rinishida ishlab chiqariladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- Гуляян Ю.А. Физико-химические основы технологии стекла – Владимир: Транзит-Икс, 2008 – 221 с.

2. Зыков И.Е., Салихов З.Г., Кимяев И.Т., Спесивцев А В., Лазарев В.И. Система управления комплексом ПВ-2 Медного завода ЗФ ОАО ГМК "Норильский никель" на основе интеллектуальных алгоритмов // Сб. докладов на 10-й Международной научно-технической конференции "Моделирование, идентификация, синтез систем управления", п.Канака (Ялта), 2007г. с.37-38.
3. Патент 2258249 Российской Федерации, МПК G05B19/18, C21B7/24. Автоматизированная система контроля и управления воздухонагревателем доменной печи / А.Б. Юрьев и др. № 2003110282/09; заявл. 09.04.2003; опубл. 10.08.2005. Бюл. № 22 - 6 с.
4. Юсупбеков Н.Р., Гулямов Ш.М., Махсудходжаева Х.С., Банденок Е.Ю. Усовершенствование электрохимической ячейки для определения состава токсических газов. Международный научный журнал «Датчики и системы», № 8, 2004 г. -с. 47.
5. Нейдорф Р.А., Соловей Н.С. Теория автоматического управления в технических системах. Ухта: МИБИ, 2004.- 432 с.
6. Саркисов П.Д., Коновалова Л.Д., Михайленко Н.Ю., Винокуров Е.Г. Производство стекла в России анализ и прогноз // Стекло и керамика. - 2007. - № 11. - С. 3 - 6.